

Published Date:- 18-10-2023

KASBGA YO’NALTIRILGAN MULOQOT KO’NIKMALARINING MAZMUN-MOHIYATI

Shomuradova Dilbar

O’zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti

dilbarhon1984@mail.ru

Bugungi kunda dunyoda yuz berayotgan ijtimoiy iqtisodiy o’zgarishlar sharoitida mehnat bozorida bo’lajak mutaxassisga qo’yilayotgan talablar anchagina yuqori. Kasbga yo’naltirilgan til tayyorgarligisiz esa o’z kasbining yetuk mutaxassisini bo’lib, jahon standartlari darajasida muvaffaqiyatli ishlash hamda kasbiy o’sishning imkonini yo’q. Ushbu maqolada bo’lajak mutaxassisning inglez tilidagi kommunikativ kompetentsiyasini kasbga yo’naltirilgan holda rivojlantirish haqida so’z boradi.

Kalit so’zlar: ko’nikma, pedagogika, nutq faoliyati, kasbiy muloqot, lingvistika, psixologiya.

Сегодня, в условиях социально-экономических изменений, происходящих в мире, требования, предъявляемые к будущему специалисту на рынке труда, достаточно высоки. Без профессиональной языковой подготовки невозможно быть хорошим специалистом своей профессии, успешно работать на уровне мировых стандартов и профессионально расти. Данная статья посвящена вопросам обучения коммуникативной компетентности будущего специалиста на английском языке в профориентационном порядке.

Ключевые слова: мастерство, педагогика, речевая деятельность, профессиональное общение, лингвистика, психология.

Today, in the conditions of social and economic changes taking place in the world, the demands placed on future specialists in the labor market are quite high. Without professional language training, it is impossible to be a mature specialist in one's profession, to work successfully at the level of world standards, and to grow professionally. This article is about developing the future specialist's communicative competence in English in a career-oriented manner.

Keywords: skill, pedagogy, speech activity, professional communication, linguistics, psychology.

“Kasbga yo’naltirilgan muloqot ko’nikmasi” tushunchasi pedagogika, sotsialingvistika, metodika fanlarida muhim o’rin tutadi. Kasbga yo’naltirilgan muloqot ko’nikmasi bu mutaxassisning o’z sohasida nutq faoliyatini amalga oshirish qobiliyati va tayyorligidir.

“Kasbga yo’naltirilga muloqot ko’nikmasining rivojlanganligi quyidagi mezonlar bo’yicha baholanishi mumkin: nutq faoliyatining asosiy turlari (gapishtish, tinglash, o’qish va yozish)da eng ko’p ishlataladigan va nisbatan sodda til vositalaridan ishonchli foydalanish qobiliyati; kundalik va kasbiy mavzularda og’zaki (monologik va dialogik) nutqni tushunish; eng ko’p ishlataladigan grammatikani faol

“O’ZBEKISTONDA GEOGRAFIK TADQIQOTLAR: INNOVATSION G’OYALAR VA RIVOJLANISH YO’LLARI”

Published Date:- 18-10-2023

o’zlashtirish; tilning bazoviy lug’atini, shuningdek, o’zlarining tor mutaxassisligining asosiy terminologiyasini bilish; xabarlar, hisobotlar tayyorlash (oldindan tayyorgarlik bilan); mutaxassislikka oid mavzularni muhokama qilishda qatnashish (savol berish va ularga javob berish); loyihalar, hisobotlar va yozishmalar tayyorlash uchun zarur bo’lgan asosiy yozish ko’nikmalarini egallash.”[1, 148-150]

Zamonaviy tadqiqotlarda “chet tilidagi kasbiy muloqot ko’nikmasi” termini quyidagicha izohlanadi: “ Chet tilidagi kasbiy muloqot ko’nikmasi – tilni bilish, uning verbal va noverbal (og’zaki va boshqa vositalar) vositalardan amaliyotda yuqori darajada foydalana olish, shuningdek, o’ziga xos nutq vaziyatlariga moslashib tildan foydalana olish tajribasidir.”[2, 78]

“Chet tilidagi kasbiy muloqot ko’nikmasi deganda nafaqat lingvistik komponensiya (nutq aloqasi vositalarini o’zlashtirish), balki, kasbiy kompetensiya, madaniy komponensiya (boshqa madaniyatga tegishli partnyorlar to’g’risida umumiy bilimlarning mavjudligi) ham tushuniladi. Kommunikativ kompetensiya - bu muloqotni amalga oshirish uchun zarur bo’lgan bilim va ko’nikmalarning fundamental tizimlarining o’zaro ta’siri. Chet tilidagi kasbiy muloqot ko’nikmasini shakllantirish tildan amaliyotda foydalanish qobiliyatini va til hodisalarini ularning kommunikativ funksiyalari (axborot, tartibga solish, hissiy-baholash va odob-axloq) bilan ongli ravishda bog’lash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan.”[3, 681]

Yuqorida sanab o’tilgan funksiyalarni amalga oshirish jarayonida quyidagi muloqot qobiliyatlari rivojlanadi:

“ - axborot funksiyasi - axborotni so’rash, axborotni uzatish, qabul qilingan ma’lumotlarni idrok etish va tushunish;

- tartibga solish/rag’batlantirish funksiyasi - biror narsaga rag’batlantirish, biror narsa so’rash, maslahat, biror narsa bo’yicha kelishuv, rag’batlantirishni idrok etish va unga munosabat;

- emotsiyal-baholash funksiyasi;

- fikr bildirish, baholash, his-tuyg’ular, ishonch, rozilik/norozilikni ifodalash;

- etiket funksiyasi - murojaat qilish, suhbatni boshlash, suhbatdosha qiziqish bildirish, suhbatni davom ettirish, suhbatni tugatish, tabriklash, minnatdorchilik, hamdardlik bildirish.”[4, 348]

V. Tenishchev bo’lajak mutaxassisning chet tilidagi kasbiy kompetensiyasini madaniyatlararo muloqot sharoitida mutaxassislik tilida malakali kasbiy muloqotni ta’minlovchi murakkab integrativ yaxlitlik deb hisoblaydi.

Mutaxassislarni tayyorlash jarayonida zamonaviy talablar, axborot almashish ko’nikmalarini egallash, chet tilida og’zaki va yozma ravishda kasbga yo’naltirilgan muloqot ko’nikmalarini rivojlantirish, axborotni tahlil qilish, umumlashtirish va tanqidiy baholay olish qobiliyatini hisobga olish zarur. Shu o’rinda mavzu yuzasidan bir nechta nuqtai nazarlarni ko’rib chiqsak. L.S.Znikina kasbga yo’naltirilgan muloqot ko’nikmalarini “Turli sohalarda va turli madaniyat vakillari bilan faoliyatni kommunikativ tashkil

“O’ZBEKISTONDA GEOGRAFIK TADQIQOTLAR: INNOVATSION G’OYALAR VA RIVOJLANISH YO’LLARI”

Published Date:- 18-10-2023

etaoladigan mutaxassisning kasbiy funktsiyalarini to’ldirib turuvchi tizim”[5, 406] deb ta’riflaydi. L. S. Znikina o’z dissertatsiyasida kasbga yo’naltirilga muloqot ko’nikmasini rivojlantirishning o’ziga xosligini ko’pincha chet tili darslari misolida tasvirlaydi.

N. K. Garbovskiy professional nutqning, ya’ni, kasbga yo’naltirilgan muloqot ko’nikmasining, yana bir belgisi sifatida nutq etiketiga rioya qilish zarurligini ta’kidlaydi. Olimning bu fikriga A.V.Koreneva ham qo’shiladi: “Darhaqiqat, nutq odobi professional muloqot jarayonida turli vazifalarni bajaradi, bizning fikrimizcha, eng muhim funktsiyalari quyidagilar:

1) odob-axloq qoidalardan to’g’ri foydalanish mutaxassisning nutqi va umumiy madaniyatini ko’rsatadi va professional muloqotning bir qismidir, chunki u nutqimizga kerakli do’stona, lekin ayni paytda jiddiy tus beradi;

2) etiket formulalari nutq qismlari o’rtasida semantik va grammatik aloqa bo’lib xizmat qiladi, masalan, ish suhbatining boshidan ma’lumot uzatish bosqichiga o’tishda ko’prik vazifasini bajaradi.

3) nutq odobi suhbatdoshlarning ishbilarmonlik munosabatlarini lingvistik vositalar yordamida tartibga soladi: boshliq - bo’ysunuvchi, hamkasb - hamkasb;”[6,133]

Oliy ta’lim bitiruvchilarida kelgusida ilmiy tadqiqot ishlari bilan shug’ullanish va yaxshi natijalarga erisha olishida hamda motivatsiyasini rivojlantirishda ham kasbiy kompetensiyaning ajralmas qismi bo’lmish kasbga yo’naltirilgan muloqot ko’nikmasining o’rni salmoqlidir. Bu haqda K.E. Bezukladnikov shunday deydi: “Chet tili bo’yicha kommunikativ kompetensiyanı shakllantirish talabalarni tadqiqot faoliyatiga jalb qilishga ham yordam beradi, chunki ushbu kompetensiyaning kasbiy va kommunikativ tarkibiy qismlari birgalikda madaniyatlararo kasbiy va akademik aloqalar hamda qo’shma tadqiqotlarni olib borishda keng imkoniyatlarni ochadi. Shuningdek, bu qobiliyat lingvistik va psixologik baryerlarni yengishning asosiy shartlaridan biridir.” [7,67]

Xulosa o’rnida shuni aytish mumkinki, kasbga yo’naltirilgan muloqot ko’nikmasi olimlar tomonidan har tomonlama chuqur o’rganilgan bo’lib, u avvalo lingvistik, sotsiolingvistik, nutqiy, diskursiv va yana bir qancha muhim kompetensiyalardan iborat. Shuninhdek, uning tor ma’nodagi izohi nutq faoliyatining to’rtta turi – tinglab tushunish, gapirish, yozish va eshitish bilan chambarchas bog’liq. Nofilologik ta’lim yo’nalishlarida chet tilida kasbiy muloqotni rivojlantirishning asosiy maqsadi talabalarni o’zlarining kasbiy muhitida samarali muloqot qilishga tayyorlashdir. Shuningdek, ularning oldida kasbiy va akademik mobililik kabi imkoniyatlarni ochish, ilmiy izlanishlar olib borishga motivatsiyani o’yg’otish, o’z sohasining yetuk va raqobatbardosh vakili bo’lishga yordam berishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Молчанова, И. Г. Формирование профессионально-коммуникативной компетенции в процессе обучения английскому языку в рамках среднего

“O‘ZBEKISTONDA GEOGRAFIK TADQIQOTLAR: INNOVATSION G‘OYALAR VA RIVOJLANISH YO‘LLARI”

Published Date:- 18-10-2023

профессионального образования / И. Г. Молчанова, М. Н. Фалькова. — Текст: непосредственный // Актуальные задачи педагогики: материалы VI Междунар. науч. конф. (г. Чита, январь 2015 г.). — Чита: Издательство Молодой ученый, 2015. — 148-150 с.

- 2.** Тенищева В.Ф. Интегртивно-контекстная модель формирования профессиональной компетенци. Автореферат диссертации на соискании ученой степени доктор пед.наук. Москва, 2008. – 78 с.
- 3.** Обучение иноязычной коммуникации как средство формирования профессиональной компетентности студента вуза. Кулешова С.А. «Иностранный язык для студентов неязыковых специальностей: новые тенденции, методы, содержание обучения». Оренбург, 1998. – 681 с.
- 4.** Зимняя, И.А. Педагогическая психология: Учебник для вузов / И.А. Зимняя. - М.: Логос, 2001. - 384 с.
- 5.** Зникина, Л. С. Профессионально-коммуникативная компетенция как фактор повышения качества образования менеджеров: дис. ... д-ра пед. наук: 13.00.08 / Л. С. Зникина. - Кемерово, 2005. - 406 с.
- 6.** Коренева, А.В. Профессионально ориентированное обучение речевой деятельности студентов неофициологов на основе междисциплинарной интеграции в курсе «Русский язык и культура речи»: дис. д-ра пед. наук : 13.00.02/ А.В. Коренева.- Орел, 2010. – 133 с.
- 7.** Безукладников К.Э. Профессиональный портфолио как средство формирования профессиональной компетентности будущего учителя иностранного языка// Иностранные языки в школе. - 2008. №8. – 67 с.